

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

«TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSİYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI»
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

«NAZARIY VA QURILISH MEXANİKASI» KAFEDRASI

FAN: NAZARIY MEXANIKA

MA"RUZACHI:

TEXNIKA FANLARI NOMZODI, DOTSENT

Xudaynazarov Sherzod Ochilovich

TOSHKENT-2022



M
E
X
A
N
I
K
A

“Nazariy mexanika” fani. Statika.
Statikaning asosiy tushunchalari.

REJA:

1. “Nazariy mexanika” fanining asosiy maqsad va vazifalari. Nazariy mexanika. Statikaning asosiy tushunchalari.
2. Bog‘lanishlar va ularning reaksiyalari.
3. Kesishuvchi kuchlar sistemasining muvozanat shartlari.

“Nazariy mexanika” fanining asosiy maqsad va vazifalari.

M

Talabalarni mexanikaning asosiy tushunchalari,
mexanikaning qonun-qoidalari va prinsiplari bilan tanishtirish

E

Talabalarda moddiy nuqta va mexanik sistema harakat
qonunlariga oid masalalarni echish malakasini shakllantirish

X

Talabalarga inshoot va mashina-mexanizmlar konstruksiya
elementlarining mustahkamligi, ustuvorligi va bikrligini
baholash ususllsrsini urgatish

A

Ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalashtirish va unga
yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish

N

K

“Nazariy mexanika”. Statika. Statikaning asosiy tushunchalari.

NAZARIY MEXANIKA

STATIKA

**Kuchlar to‘g’risida umumiyl bilim beruvchi va
jismlarning muvozanat holatini o‘rganuvchi bo‘lim**

KINEMATIKA

**Jismlarning mexanik harakatini ta‘sir etuvchi
kuchlarni e’tiborga olmasdan, sof geometrik nuqtai
nazardan o‘rganuvchi bo‘lim**

DINAMIKA

**Jismlarning mexanik harakatini ularning inertligi
va ta‘sir etuvchi kuchlarni hisobga olgan holda
o‘rganuvchi bo‘lim**

NAZARIY MEXANIKA

STATIKA

MODDIY NUQTA

ABSOLYUT QATTIQ JISM

FAZO

MUVOZANAT

KUCH

**M
E
X
A
N
I
K
A**

Moddiy nuqta – qaralayotgan sanoq sistemasiga nisbatan o'Ichamlari e'tiborga olinmaydigan darajada kichik, massasi bir nuqtada to'plangan jismdir.

Absolyut qattiq jism - istalgan ikki nuqtasi orasidagi masofa doimo o'zgarishsiz qoladigan jismdir.


Fazo - bir vaqtda mavjud bo'lgan ob'ektlarning joylashish tartibini ifodalaydi. Nazariy mexanikada fazo uchun uch o'Ichovli Evklid fazosi qabul qilinadi.

Muvozanat – jismning harakatdagi boshqa jismlarga nisbatan tinch holatidir.

Kuch - bir jismning ikkinchi jismga ta'sirining miqdoriy o'Ichovini xarakterlovchi kattalikni bildiradi.


KUCH

- Moddiy jismlarning o'zaro mexanik ta'sirlarining miqdoriy o'lchovini belgilovchi kattalik mexanikada kuch deb ataladi.
- Kuch vektor kattalik hisoblanadi. Uning jismga ta'siri:
1) son qiymati yoki kuch moduli, 2) kuchning yo'nalishi, 3) kuchning qo'yilish nuqtasi bilan aniqlanadi.




Qattiq jismga bir necha kuchlar ta'sir etsa, bu kuchlar to'plamiga ***kuchlar sistemasi*** deb ataladi.

KESISHUVCHI




2-rasm

TEKISLIKDAGI



3-rasm

FAZOVİY



4-rasm

Bog'lanishlar va ularning reaktsiyalari



5-rasm.

Shiftga osilgan
qandil





6-rasm.

Stol ustdagi kitob


- *Jismning fazodagi harakatitini cheklovchi yoki chegaralovchi barcha sabablar bog'lanishlar deb ataladi.*
- *Bog'lanishning jismga ko'rsatadigan ta'sir kuchi bog'lanish reaktsiya kuchi yoki soddagina bog'lanish reaktsiyasi deyiladi.*
- *Bog'lanish reaktsiyasi ham kuch vektori bo'lib, ushbu kuch faqat aks ta'sir sifatidagina mavjud bo'ladi.*
- *Bog'lanish reaktsiyasining yo'nalishi jismning qanday yo'nalishda ko'chishiga qarshilik qilsa, shu yo'nalishga qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi.*

1. Silliq tekislik (sirt) yoki tayanch.

2. ip, arqon yoki tros.



7-rasm







8-rasm

3. Tsilindrik sharnir

4. Sferik sharnir.

5. Vaznsiz sterjen.



9-rasm


10-rasm

11-rasm


12-rasm

Bog'lanishlar aksiomasi

Har qanday erkin bo'limgan jismga qo'yilgan bog'lanishlarni shu bog'lanishlarning reaktsiya kuchlari bilan almashtirish orqali erkin bo'limgan jismni erkin jism deb qarash mumkin.




13-rasm



14-rasm


Kesishuvchi kuchlar sistemasining muvozanat shartlari.



1) ikki kuchni qo'shish

$$R = \sqrt{F_1^2 + F_2^2 + 2F_1F_2 \cos\alpha}$$


$$\frac{R}{\sin\alpha} = \frac{F_1}{\sin\gamma} = \frac{F_2}{\sin\beta}$$




15-rasm



2) Kuchlar sistemasini qo'shish



16-rasm



17-rasm

$$\mathbf{R} = \mathbf{F}_1 + \mathbf{F}_2 + \mathbf{F}_3 + \dots + \mathbf{F}_n = \sum \mathbf{F}_k$$

Jismga qo'yilgan bir necha kuchlarning geometrik yigindisi yoki bosh vektori shu kuchlardan qurilgan kuchlar ko'pburchagini yopuvchi tomoni bilan tasvirlanadi.



Qattiq jismga qo‘yilgan kesishuvchi kuchlar sistemasi muvozanatda bo‘lishi uchun bu kuchlar sistemasining bosh vektori nolga teng bo‘lishi zarur va yetarlidir.

$$\bar{R} = 0$$

- Kesishuvchi kuchlar sistemasi ta’siridagi jism muvozanatda bo‘lishi uchun sistema tarkibidagi kuchlar asosida qurilgan ko‘pburchak yopiq bo‘lishi zarur va yetarlidir.
- Kesishuvchi kuchlar sistemasi ta’siridagi jism muvozanatda bo‘lishi uchun sistema tarkibidagi kuchlarning har bir koordinata o‘qlaridagi proeksiyalarining yig’indisi alohida – alohida nolga teng bo‘lishi zarur va yetarlidir.

$$R_x = \sum F_{kx} = 0$$

$$R_y = \sum F_{ky} = 0$$

$$R_z = \sum F_{kz} = 0$$


INSERT JADVALI

V	+	-	?

Insert jadvali:

- ma'lumotlarni sistemalashtirishni (mustaqil o'qish/ ma'ruza eshitish jarayonida olingan), ularni tasdiklash, aniklashtirish yoki rad etish; qabul qilinayotgan ma'lumotning tushunarligini nazorat qilish, avval egallangan ma'lumotni yangisi bilan bog'lash qobiliyatlarini shakllantirishni ta'minlaydi;
- o'quv ma'lumotini mustaqil o'r ganilganidan so'ng qo'llanadi.

Insert jadvalining tuzilishi va uni to'ldirish qoidasi bilan tanishadilar.



O'qish jarayonida olingan ma'lumotlarni individual holda sistemalashtiradilar;

Matnda qo'yilgan belgilar asosida jadval ustunlarini to'ldiradilar:




V - xaqidagi bilimlarimga javob beradi;

«» - xaqidagi bilimlarimga zid;

+ - yangi ma'lumotlar

? - tushunarsiz (aniqlashtirish, to'ldirishni talab qiladi) ma'lumot.



Asosiy adabiyotlar

- 1.Roland Jančo & Branislav Hučko, Introduction to Mechanics of Materials, Part I, First Edition, 2013, pp.160.**
- 2. G. Richard, J. Keith, "Mechanical Engineering Desing".- USA, New York, 2015 y.-1082 p.**
- 3. A. Ashok, G. Ambekar “Mechanizm and mashine teory”, - India, New Deili, 2013 y.-986 p.**
- 4. Sandor B.I., Roloff R., et.al., “Mechanics of Solids”. Ed.Frank Kraith. Boca Raton:CRC Press LLC, 1999, 140 p.**
- 5. Mirsaidov M.M., Boymurodova L.I., G'iyasova N.T. “Nazariy mexanika”. O'quv qo'llanma. T.: “ILM ZIYO”, 2009. – 224 b.**
- 6. Mirsaidov M.M., Matkarimov R.J., Godovannikov A.M. “Materiallar qarshiligi”, Darslik. T.: "Fan va texnologiya", 2010. – 410 b.**

Internet saytlari

1. [ftp://ftp2.natm.ru.](ftp://ftp2.natm.ru)
2. ftp://ftp2.natm.ru/incomingXXI/-=For_People=-/c3.rar
3. <http://www.techno.edu.ru/db/msq/1233.html;>
4. [http://www..tothelp.ru/theor/sopromat/;](http://www..tothelp.ru/theor/sopromat/)
5. [iic@mail.pnzgu.ru;](mailto:iic@mail.pnzgu.ru)
6. [www.miit.ru/institut/ipss/faculties/trm/main.htm;](http://www.miit.ru/institut/ipss/faculties/trm/main.htm)
7. [http://www.svkspb.nm.ru.](http://www.svkspb.nm.ru)
8. <http://specural.com/>
9. <http://www.prikladmeh.ru/lect17.htm>
10. <http://sneek.ru/>
11. <http://www.study.uz>
12. <http://www.uz>
13. [www Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)
14. <http://www.talaba-qmii.narod.ru>

NAZORAT SAVOLLARI

1. Nazariy va amaliy mexanika fani nimani o'rgatadi?
2. Nazariy mexanika bo'limi nimani o'rgatadi?
3. Nazariy mexanika necha qismga bo'lib o'rGANILADI?
4. Moddiy nuqta deb nimaga aytiladi?
5. Absolyut qattiq jism deb nimaga aytiladi?
6. Kuch deb nimaga aytiladi?
7. Kuchning jismga ta'siri qanday faktorlar bilan aniqlanadi?
8. Erkin jism deb qanday jismga aytiladi?
9. Bog'langan jism deb qanday jismga aytiladi?
10. Bog'lanish deb nimaga aytiladi?
11. Bog'lanish reaksiyasi deb nimaga aytiladi?
12. Kesishuvchi kuchlar sistemasi deb nimaga aytiladi?
13. Kesishuvchi kuchlar sistemasi muvozanatining geometrik sharti qanday ifodalanadi?
14. Kesishuvchi kuchlar sistemasi muvozanatining analitik sharti qanday ifodalanadi?
15. Kuchlar sistemasining qanday turlari mavjud?

**E'TIBORLARINGIZ UCHUN
RAHMAT!**